

## PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMIDA ZAMONAVIY RAHBAR QIYOFASI

**Muxiddin Toshov**

*Oriental universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi*

ARTICLE INFO.			Annotatsiya
<b>Kalit</b>	<b>soʻzlar:</b>	Taraqqiyot strategiyasi, kasb-hunar texnikum, qiyofasi, sadoqat, xodimlar.	Ushbu maqolada professional taʼlim tizimida rahbar kadrlarning ilmiy, maʼnaviy-maʼrifiy, huquqiy va iqtisodiy sohaga oid bilimlarini yanada shakllantirish, taʼlim muassasasida, jamoatchilik oldidagi masʼuliyati, vazifalari haqida fikrlar bayon etilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

Bugun mamlakatimizda olib borilayotgan keng koʻlamli islohotlar, avvalo, har bir rahbardan yuksak masʼuliyat, gʻayrat-shijoat, halollik va sadoqat bilan ishlashni talab etmoqda. Chunki mazkur yangilanishlar surʼati va koʻlami, belgilangan vazifalarning samarali amalga oshirilishi koʻp jihatdan barcha boʻgʻindagi rahbarlarning salohiyati hamda maʼnaviyatiga bogʻliqdir.

2020-2021 oʻquv yilidan boshlab respublikamizda Professional taʼlim tizimiga oʻtilishi munosabati bilan kasb-hunar maktablari, kollejlarda hamda texnikumlarda faoliyat yuritadigan rahbarlar oldiga ulkan ishlarni amalga oshirish vazifalari qoʻyildi. Oʻzbekistonda ijtimoiy sohani rivojlantirish masalasi 2022-2026 yillarga moʻljallangan Taraqqiyot strategiyasida, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11 sentabrdagi “Oʻzbekiston-2030 ” straregiyasi toʻgʻrisida”gi PF-158-son Farmonida oʻz aksini topganligini koʻrishimiz mumkin. Ijtimoiy soha muhim bir yoʻnalishi sifatida qabul qilinishi davlatning eng katta boyligi boʻlgan yoshlarni jismonan sogʻlom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qatʼiy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish, professional va oliy taʼlim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb etish, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qoʻllab- quvvatlash va roʻyobga chiqarish, bolalar va yoshlar oʻrtasida sogʻlom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, yosh oilalar uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, taʼlim muassasalari, yoshlar va boshqa tashkilotlarning samarali faoliyatini tashkil etish masalasining dolzarbligini ifodalaydi. Taraqqiyot strategiyasi demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasidagi islohotlarda yoshlar faolligini oshirish bilan bogʻliq bir qator yangi va muhim vazifalarni belgilab berganligini alohida qayd etish joiz. Bugun mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik, milliy anʼana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, maʼnaviy yetuk va jismonan sogʻlom barkamol avlodni voyaga etkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Bizga maʼlumki, 2019 yil 19 mart kuni Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida yoshlarga eʼtiborni kuchaytirish, yosh avlodni madaniyat, sanʼat, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan toʻgʻri foydalanish koʻnikmasini shakllantirish,

yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash masalalariga bag'ishlangan videosektor yig'ilishi bo'lib o'tdi. Mazkur yig'ilishda davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalaridagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surdi. Ushbu masalalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda professional ta'lim muassasalari raxbar kadrlarining xam o'ziga xos yondashuvi bo'lmog'i lozim.

Rahbar shaxsi barkamolligi, qat'iy xarakteri, milliy qiyofasidan tashqari, bir qator qobiliyatlarga ega bo'lishini taqazo etadi. Bu esa o'z navbatida rahbarning obro' qozonishiga puxta negiz hozirlaydi, lavozimning keyingi bosqichlari uchun imkon yaratadi, istiqbol rejalarini ro'yobga chiqaradi. Rahbar shaxsida quyidagi qobiliyatlar bo'lishi kerak: tashkilotchilik qobiliyati, rahbar bozor iqtisodiyoti davrida o'ta uddaburon, ishbilarmon, muaassasaning oldida turgan vazifalarni maqsadga muvofiq, sobitqadamlik bilan bajarishi lozim. Bunda ishlab chiqarishni moliyaviy- iqtisodiy masalalarini to'g'ri va oqilona tashkil etish; yangi g'oyalar, texnologiyalar, chet el tajribalarini mahalliy sharoitga moslashtirgan holda amaliyotga tadbiiq etish; favquloddagi ishlab chiqarish muammosini tezkorlik bilan hal qila bilish; o'rni kelganda o'rinbosarlar, yordamchi va xodimlarning individual psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda rag'batlantirish, jazolash, tanbeh berish, e'tiroz bildirish, real va'dalar berish orqali murosaga keltirish; tobe insonlarning xususiyatlarini e'tiborga olgan holda faoliyatlarini tashkil qilishga odatlanish; ishni ratsional taqsimlash; korxonasi istiqboli va xodimlar ijtimoiy himoyasi uchun hamisha qayg'urish, g'amxo'rlik qilish kabi dolzarb vazifalarni hal etish kabi mas'uliyatni his etmog'i lozim. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, zamonaviy rahbarlarni tayyorlash va malakasini oshirish mobaynida iloji boricha shaxsning o'z-o'zini anglashi, o'z e'tiqodi va qadriyatlarini hayoti davomida aniq ifodalash choralari haqida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish lozim. Axir, aynan, ichki poklik, samimiylik va inson tabiatining yaxlitligi o'zgaga ta'sir etishdagi asosiy kuch sifatida maydonga chiqadi. Rahbarni tayyorlash, uning ta'lim menejmenti sohasida malakasini oshirish bilan bog'liq har qanday tadbiiq rahbar shaxsi, uning boshqaruv mahoratini takomillashtirish, o'zgalarga ta'sir etish ko'lamini kuchaytirish masalasini maqsad qilib qo'yadi.

Olimlarning tadqiqotlariga ko'ra, jamoa yutuqlarining sakson foizi rahbar tashkilotchiligiga, qolgan yigirma foizigina xodimlarning salohiyatiga bog'liq ekanligi isbotlangan.

Rahbarlarga qo'yiladigan quyidagi ma'naviy mezonlar esa, etuk shaxsni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi:

**Birinchidan**, har bir rahbar, avvalo, ko'ngli ochiq, qalbi toza, aql-zakovat sohibi, yuksak salohiyatli bo'lishi kerak. Boshqalarga etakchilik qilishga, birinchi galda, halol va diyonatli, xalqparvar insonlar tanlanmasa, ko'zlangan maqsadlarga erishib bo'lmaydi.

**Ikkinchidan**, rahbar o'zini tarbiyalab voyaga etkazgan, ishonch bildirib yuqori lavozimga munosib ko'rgan xalqiga halol xizmat qilishi, zimmasidagi ulkan mas'uliyatni doimo chuqur his etishi lozim. U xalq oldida, yurt oldida javobgar ekanligini unutmasligi kerak. Muhtaram Prezidentimizning «**Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak**» degan tamoyili barcha bo'g'indagi rahbarlar faoliyatida asosiy qoidaga aylanishi zarur.

**Uchinchidan**, rahbar qo'l ostidagi tajribali, o'z ishining bilimdoni bo'lgan mutaxassislariga tayanishi, jamoaning fikriga asoslanib xulosa chiqarishi kerak. Bugungi rahbardan barcha sohalarini yaxshi bilish, iqtisod, axborot texnologiyalari, huquq, siyosat va ma'naviyat ilmlaridan xabardor bo'lish, yangi innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish talab etilmoqda. Shu bois ham u doimo izlanib, o'z bilim va malakasini yuksaltirib, yangicha tafakkur tarziga ega bo'lishi lozim.

**To'rtinchidan**, rahbarning ish uslubi va u qabul qilgan qarorlar faoliyat samaradorligiga xizmat qilishi kerak. Rahbar boshqaruvning ma'muriy buyruqbozlik usullaridan voz kechishi, rasmiyatchilikka berilmasligi muhim. Kimlargadir yaxshi ko'rinish, maqtanish uchun qilingan ish ko'zbo'yamachilik bo'lib, faqat salbiy oqibatlariga olib keladi.

**Beshinchidan**, har qanday rahbarda tashabbuskorlik, qat'iyat va talabchanlik bo'lmog'i shart.

Talabchanlikni zo'ravonlikka, qat'iyatni manmanlikka aylantirish o'ta kaltabinlikdir. Bunday illatlar rahbari yaxshi mutaxassis kadrlar va samimiy insonlardan uzoqlashtiradi.

**Oltinchidan**, rahbar qo'l ostidagilarni tanish-bilish va mahalliychilik hamda shaxsiy sadoqatiga qarab tanlamasligi lozim.

U jamoadagi yaxshi mutaxassislarni qadrlashi, ularning xizmat faoliyati davomida orttirgan boy amaliy tajribalaridan unumli foydalanishga intilishi kerak.

**Yettinchidan**, rahbar turli maqtovlardan boshi aylanib, «dohiy»lik kasaliga chalinib qolmasligi muhimdir. Aks holda, bunday rahbarlar atrofida faqat o'z manfaatini o'ylovchi «maslahatgo'ylar», amalparast, laganbardor, oddiy odamlarga zulm o'tkazuvchilar to'planib qoladi. Ig'vo, tuhmat va hasadgo'ylik esa, jamoada ma'naviy muhitning buzilishiga sabab bo'lib, parokandalikni yuzaga keltiradi.

**Sakkizinchidan**, rahbar adolatsizlikka aslo yo'l qo'ymasligi lozim. Har bir ishda odillik bilan qarorlar qabul qilishi, qo'l ostidagilarga nisbatan hurmat bilan qarab xolisona munosabatda bo'lishi kerak. Adolat – rahbarlikning eng buyuk mezonlaridan biri. Shu o'rinda buyuk Sohibqiron bobomizning «Kuch – adolatda» degan hikmatli so'zlarini ta'kidlab o'tish o'rindir.

**To'qqizinchidan**, rahbar o'z shaxsiy hayotida ham boshqalarga namuna va ibrat bo'lishi, sog'lom turmush tarziga rioya qilib, turli zararli odatlardan xoli bo'lishi zarur. U nafs balosidan saqlanishi, qo'l ostidagilarni ham tamagirlik va loqaydlik kabi turli illatlardan asrashga intilishi kerak. O'zini boshqara olmagan inson hech qachon boshqalarni idora qila olmaydi.

**O'ninchidan**, rahbarning barcha ishlari ochiq va oshkora bo'lishi lozim. Uning vaqti-vaqti bilan jamoa oldida hisobot berib turishi rahbarlik faoliyatiga faqat obro'keltirib, atrofda gilarida unga nisbatan ishonchni oshiradi.

Bundan tashqari, rahbar o'z g'oyasi va harakat dasturiga ega bo'lib, boshqalarni ham shu yo'ldan boshlashi, yagona maqsad atrofida birlashtirishi muhim ahamiyatga ega.

Xodimlar bilan o'zaro munosabatlarda etakchi inson dunyoqarashi, madaniyati va muomalasi bilan boshqalarda o'ziga nisbatan havas uyg'otishi, rahbarlik va ma'naviyat omillarining o'zaro bog'liqligini e'tiborda tutishi lozim.

Ichki ishlar organlarining har bir bo'g'inidagi rahbarlari qo'l ostidagi shaxsiy tarkib o'rtasida sog'lom ma'naviy muhit yaratishi, odob-axloq qoidalarini yuksaltirishi, xodimlarni to'g'ri yo'lda tarbiyalash orqali salbiy xulq-atvorning oldini olishi asosiy vazifalar sifatida belgilangan.

Rahbar o'ziga bo'ysunuvchi xodimlar tomonidan me'yoriy hujjatlar talablariga amal qilinishiga talabchan bo'lishi, ularga yuksak kasbiy mahorat, qonuniylik hamda qasamyodga sodiq qolish borasida namuna ko'rsatishi, tashabbus va intilishlarini rag'batlantirishi, shuningdek, xizmat intizomini buzuvchi hamda boshqa salbiy holatlar sodir etishga moyil xodimlarga nisbatan murosasiz bo'lishi zarur.

Shaxsiy tarkibning individual xususiyatlarini o'rganish, jamoani jipslashtirish, xodimlar tomonidan nojo'ya xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olish rahbarga qo'yiladigan eng muhim talablardan sanaladi. Xodimlarning oilaviy sharoitlarini muntazam o'rganib borish, ularni ijtimoiy va huquqiy himoya qilish ham uning doimiy diqqat markazida bo'lishi shart.

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlash joizki, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev rahbarligida mamlakatimizda barcha sohalarda olib borilayotgan tub islohotlarning nechog'li muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, bugun har bir bo'g'indagi rahbarning mas'uliyati va kundalik faoliyatiga bevosita bog'liq. Shunday ekan, rahbarning faoliyati Vatan taraqqiyoti, mamlakat

kelajagi, yurt tinchligi va xalq farovonligiga yo'naltirilgan bo'lib, chinakam rahbar odamlarning ko'ngliga yo'l topib, atrofdagilarni ezgulikka, yaxshilikka, yangilik yaratishga da'vat qiladi.

Eng muhimi, o'zi ham bu yo'lda butun borlig'ini, bor bilim va salohiyati, kuch-g'ayratini ishga solib, jamiyat istiqboli uchun fidoyilik va sadoqat bilan, vijdonan xizmat qilmog'i lozim. Zero, davlatimiz rahbari ta'kidlaganlaridek, **«Haqiqiy rahbar, haqiqiy etakchi odamlarning bardoshini sinash uchun emas, balki ularga munosib shart-sharoit yaratib berish, og'irini engil qilish uchun rahbar etib tayinlanadi. Barcha bo'g'indagi rahbarlar o'zining odob-axloqi va madaniyati bilan hammaga o'rnak va namuna bo'lishi zarur».**

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11 sentabrdagi "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosatiga"risida"gi Qonuni. – T., 2016.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 19 mart kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida belgilab berilgan beshta muhim tashabbus.
5. M.Toshov. Professional ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarni tashkil etish. O'quv qo'llanma.-214-bet.EFFEGT-D nashriyoti,T-2022